



## MAHALLIY VAKILLIK ORGANLARI TIZIMINING XORIJİY MAMALAKATLAR TAJRİBASI

Sayfiddinov Aqliddin Anvarjon o'g'li

TDYU magistranti

Hozirgi kunda davlatlar nafaqat siyosat va iqtisodiyot sohasida, balki huquqiy tizimni takomillashtirish borasida ham tajriba almashish yuzasidan keng hamkorlik qilishga intilmoqda. Mamlakatimizda mustaqillik yillarda ko'pgina xorijiy mamlakatlarga o'rnak bo'lishga arzigelik juda katta tajriba to'plangan. Ammo har bir faoliyat bo'yicha xorijiy tajribani o'rganish shu sohadagi milliy darajadagi muammolarni bartaraf etishga, ayrim mamlakatlarda yo'l qo'yilgan xatolarni takrorlamaslikka, an'anaviy, xorijiy amaliyotda o'zining samarasini bergen usul hamda vositalardan andoza olishga ko'maklashadi[1]. Shu sababli xorijiy mamlakatlarning mahalliy davlat hokimiyati organlari bo'linishi prinsipiga oid tajribasini o'rganish, bu boradagi ijobjiy amaliyot natijalaridan foydalanish sohaga oid tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirishga xizmat qilishi tabiiy.

Xorijiy mamlakatlarda mahalliy davlat hokimiyati organlarini tashkil etish va ular vakolatlarining taqsimlanishining o'ziga xos jihatlarini tahlil qilishda, eng avvalo, davlatlarning ma'muriy-hududiy va siyosiy birliklarga bo'linishi hamda markaziy hokimiyat organlari bilan hududlardagi mahalliy hokimiyat va o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtaсидagi munosabatlarning tavsifini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Rivojlangan davlatlarda mahalliy boshqaruvi tizimi vertikal ravishda ikkitadan beshtagacha bo'lgan bo'g'inni o'z ichiga olgan. Bunday bo'linishni quyidagicha tavsiflash mumkin: ikki bo'g'inli bo'linishda viloyatlar (guberniyalar, okruglar, provinsiyalar) – jamoalarga (munisipalitetlar, kommunalar); uch bo'g'inli: viloyatlar – tumanlar – jamoalar; to'rt bo'g'inli: mintaqalar – viloyatlar – tumanlar – jamoalar. Qayd etganimizdek, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari yuqori turuvchi organlar bilan o'zaro munosabatlar darajasiga qarab ham turlicha bo'ladi. Italiya, Fransiya, Germaniya kabi davlatlarda quyi turuvchi organlarning yuqori turuvchi organlarga qat'iy, to'g'ridan-to'g'ri bo'ysunuvda bo'lishini kuzatadigan bo'lsak, AQSh va Buyuk Britaniya kabi davlatlarda avtonom tizimga amal qilib kelmoqda.

Belgiyada mahalliy hududlardagi ijroiya hokimiyatning asosiy vakili qirol tomonidan shahar kengashi a'zolari orasidan tayinlanadigan mer hisoblanadi. Kengash, shuningdek agar umumiy kelishuv bo'lsa, shahar kengashi a'zosi bo'limgan jamoat arbobini ham nomzod sifatida ko'rsatishga haqli.

Aytish joizki, mer nomzodini ko'rib chiqishda asosiy e'tiborni uning shahar kengashiga bo'lib o'tgan saylovlarda g'olib chiqqan siyosiy partyaning vakili ekanligiga qaratish lozim. Mer, o'z navbatida, kengashga raislik qiladi. Uning muayyan hududdagi munisipalitet rahbari sifatidagi asosiy vazifasi qonunlar va mahalliy kengash (yoki boshqaruvi)ning qarorlariga rioya qilinishi ustidan nazorat qilishdir.

Shuningdek, u lavozimga tayinlanganidan keyin markaziy hukumat nomidan polisiya va registratura faoliyatini boshqarish hamda tashkil etish vakolatiga ega bo'ladi. Ya'ni,

bunda siyosiy partiyalar o'zlarining vakillari orqali nafaqat mahalliy miqyosda ijro hokimiyati, balki vakillik hokimiyati faoliyati ustidan ham nazoratni o'rnatish orqali ular faoliyatida ishtirok etadi [2].

I.Trofimovaning fikricha, Fransiyada mahalliy o'zini o'zi boshqarishni isloh qilishning asosiy yo'nalishlari muayyan partiya mafkurasiga mos kelmasligini kuzatish mumkin. Islohotlar asosan davlat hokimiyati va boshqaruvini nomarkazlashtirish va hokimiyat funksiyalarini mahalliy darajada biznes, siyosat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi keng hamkorlikni o'rnatish orqali ular o'rtasida taqsimlash yo'nalishida kechayotganligi tadqiqotchilar tomonidan qayd etiladi [3]. Ispaniyada munisipalitetlar hududlarda ommaviy hokimiyatni tashkil etishning asosiy shakli hisoblanadi. Qayd etish joizki, munisipalitetlarda rahbar organ bo'lib, munisipal kengashlar maydonga chiqadi. Uning a'zolari har 4 yilda proporsional tizim asosida bo'lib o'tadigan saylov natijalariga ko'ra shakllantiriladi. Munisipal kengashdagi o'rinlar partiyalarning ro'yxatlari asosida saylangan a'zolarga taqdim etiladi.

Ispaniyada munisipalitetlar ancha kichik hududlarda tashkil etilganligi bois kengash tarkibida odatda 8-10 a'zo bo'ladi. Yirik shaharlarda esa 7 tadan 57 tagacha a'zo bo'lishi mumkin. Munisipalitet merlari odatda biron-bir partiya ko'p ovoz olgan bo'lsa, u tomondan, aksincha bironta partiya ko'pchilik ovoz to'plamagan bo'lsa, koolision ovoz berish asosida saylanadi. Munisipalitetlar vakolatlari doirasiga transport, kommunal xizmat, chiqindilarni qayta ishslash, mahalliy xizmatlar (masalan, sport inshootlari, ommaviy kutubxonalar, ta'lim, sog'liqni saqlash) sohalari kiradi [4].

Amerika Qo'shma Shtatlarida mahalliy o'zini o'zi boshqarish ma'muriy hududiy bo'linish asosida tashkil qilingan. AQSh federativ davlat bo'lib, o'z tarkibiga shtatlarni qamrab olgan. O'z navbatida, shtatlarning aksariyati grafliklardan tashkil topgan (300 dan ortiq). Aholi grafliklarning Kengashini va bir qator mansabdar shaxslar, ya'ni sherif, prokuror, attorney, xazinachi va boshqalarni saylaydi. Shuningdek, grafliklarda komissionerlar Kengashi ham saylanadi. Ushbu Kengash asosan moliyaviy masalalarni hal qiladi. Grafliklardagi shaharlar o'zlarining boshqaruv tizimiga ega (Kengash va mer) . AQShdagi mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari vakolatlari doirasiga quyidagilar kiradi: jamoat xavfsizligini ta'minlash, mahalliy soliqlar va yig'imlarni o'rnatish, mahalliy byudjetni qabul qilish, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, ya'ni maktab ishi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, uy-joy qurilishi, kommunal xo'jaligi, mahalliy yo'llarni qurish va saqlash, mahalliy mulkni boshqarish (ayrim korxonalar va xo'jalik xizmatlari) [5] .

AQShda mahalliy o'zini o'zi boshqarish tizimi asosini quyidagi fundamental tamoyillar tashkil qiladi.

□Davlatning mahalliy jamoalarni o'zini o'zi boshqarishga bo'lgan siyosiy huquqlarini ta'minlashga qaratilgan majburiyati mavjud. Unga ko'ra, mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan barcha muammolar ularga duch kelgan fuqarolar va ularning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan hal etilishi lozim.

□O'zini o'zi boshqarishga bo'lgan siyosiy huquqdan foydalanish uchun kuchli qonunchilik bazasi bo'lishi zarur. O'z navbatida, qonun mahalliy avtonomiya yuqori darajada bo'lishini va aholining qarorlarni qabul qilish jarayonida demokratik tarzda



ishtirok etishini hamda mustahkam moliyaviy asoslarni ta'minlashi lozim [6]. AQShda mahalliy boshqaruvning uchta shakli mavjud. Mazkur shakllarning ilk ko'rinishi "shahar yig'ini" bo'lib, uning ildizi Britaniya qonunchiligiga borib taqaladi. Ayni paytda AQShning shimoliy- sharqiy oltita shtatida mahalliy boshqaruv qayd etib o'tilgan shaklda amalgalashiriladi. Mazkur boshqaruv tizimining asosiy xususiyati shundaki, unda asosan vakillik demokratiyasiga urg'u beriladi.

Fuqarolar yig'ini bir kunda bir marta shaharning voyaga yetgan aholisi tomonidan mahalliy qonunlar va moliyaviy masalalar bo'yicha ovoz berish uchun chaqiriladi. "Zaif mer va Kengash" tizimida shahar ishlari bo'yicha nazorat asosan 9-25 kishidan iborat bo'lgan saylab qo'yiladigan Kengashlar qo'lida to'plangan bo'ladi. Kengash mustaqil faoliyat yuritadi va ko'p sonli qo'mitalar orqali mahalliy boshqaruvning barcha departamentlari ustidan nazoratni amalgalashiradi.

Boshqaruvning navbatdagi shakli "Kuchli mer va Kengash" tizimiga asoslanadi. Mer aholi tomonidan to'g'ridan-to'g'ri ovoz berish jarayonida saylanadi, u saylab ko'yilgan kengash qarorlariga veto qo'yish huquqiga ega bo'ladi. Ayni paytda kengash ushbu vetonini 2/3 qism ovoz bilan bekor qilishi mumkin. Mer byudjetni tayyorlash jarayoniga to'g'ridan-to'g'ri mas'ul bo'ladi. Lekin byudjet kengash tomonidan tasdiqlanishi lozim.

Boshqaruvning "Kengash va boshqaruvchi/menejer" shaklida ijro hokimiyati siyosat bilan bog'liq bo'lмаган, kengash tomonidan saylanadigan va kontrakt asosida ishlaydigan menejer-mutaxassisiga tegishli bo'ladi. Boshqaruvning bunday shakli bo'lgan shaharlarda mer lavozimi ham mavjud bo'lishi mumkin. Lekin u ijro hokimiyatining ayrim vakolatlariga ega bo'ladi. Shahar menejeri xodimlarni ishga qabul qilish yoki bo'shatish xizmatlari faoliyatini ustidan va byudjet bazasini tayyorlash yuzasidan nazoratni amalgalashiradi. Kengash byudjetni tasdiqlaydi va mahalliy siyosatni belgilab beradi. Menejer esa ularning amalgalashirishi yuzasidan mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Kengash istalgan vaqtida menejerni o'zgartirishi mumkin.

Shuningdek, Kengash moliya va yuridik masalalar ustidan nazorat o'rnatish uchun mustaqil ravishda shahar auditori va prokurorini tayinlaydi. Ta'kidlash joizki, bugungi kunda boshqaruvning mazkur shakli AQShda keng tarqalgan bo'lib, mamlakatning yarmidan ko'pidi mahalliy boshqaruv "Kengash va menejer" (7000 dan ziyod) tizimi asosida tashkil qilingan.

AQShda mahalliy o'zini o'zi boshqarish ummummilliy miqyosda konstitusiyaviy maqomga ega emas va uning faoliyati muayyan shtatlarning qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Ayni paytda mahalliy boshqaruv de-fakto federatsiyaning ichida hukumatlararo hamkorlikning mustaqil sub'ekti sifatida namoyon bo'lib, "kooperativ federalizm" amal qilishida doim muhim rol' o'ynagan.

AQShda mahalliy hokimiyatining markaziy organlaridan mustaqilligini quyidagi misol ham yaqqol ko'rsatib beradi. AQSh 45- Prezidenti Donald Tramp iqlim o'zgarishlarining oldini olishga qaratilgan Parij kelishuvidan chiqishini ma'lum qilgan bir paytda, bir qator shtatlar, shahar va munisipalitetlari baribir kelishuvga rioya qilishlarini aytmoqda. Bundan ko'rinish turibdiki, AQShda mahalliy hokimiyat organlari o'zlarining jug'rofiy hududlarida

siyosatchilar, siyosat yetakchilari va ijtimoiy ishlab chiquvchilar sifatida faol rol' o'ynamoqda [7].

"Qozog'iston Respublikasi mahalliy davlat boshqaruvi organlari to'g'risida"gi Qonunning 24-moddasiga asosan, maslahat deputatlari uchdan ikki qismining ovozi bilan hokimga nisbatan ishonchsizlik bildirilishi va uni bo'shatish to'g'risida Prezident yoki yuqori turuvchi hokim oldiga masala qo'yilishi mumkin. Mahalliy byudjet, hududni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish dasturlari, rejalar ijrosi yuzasidan hokim taqdim etadigan hisobotlarning maslahat tomonidan ikki marotaba tasdiqlanmasligi hokimga nisabatan ishonchsizlik bildirish uchun asos bo'ladi [8]

Yaponiyada mahalliy darajada ijro etuvchi va vakillik hokimiyati vakolatlari ajratilgan va turli organlarga ajratilgan. Ijro etuvchi hokimiyat mahalliy hokimiyatga, vakillik hokimiyati esa mahalliy Assambleyaga tegishli.

Mahalliy hukumat o'z yurisdiktasiyadagi siyosatni amalga oshirish va ishlarni boshqarish uchun javobgardir. Uni Assambleya tomonidan saylanadigan bosh ijrochi direktor boshqaradi. Mahalliy hokimiyatning ijro etuvchi hokimiyati ta'lim, sog'liqni saqlash, transport va jamoat xavfsizligi kabi davlat xizmatlarini boshqarishni o'z ichiga oladi.

Boshqa tomondan, vakillik hokimiyati mahalliy Assambleya tomonidan amalga oshiriladi. U mahalliy hukumat tomonidan siyosatni amalga oshirishga rahbarlik qiluvchi qonunlar va qoidalarni qabul qilish uchun javobgardir. Assambleya a'zolari mutanosib vakillik tizimi orqali xalq ovozi bilan saylanadi.

Bu ikki hokimiyat o'rtaсидаги munosabatlar nazorat va muvozanat tizimi bilan tavsiflanadi. Ijro etuvchi hokimiyat siyosatni amalga oshirsa va davlat xizmatlarini boshqarsa-da, muhim harakatlar qilishdan oldin u Assambleyadan ma'qullashi kerak. Xuddi shunday, qonun chiqaruvchi qonun va qoidalarni qabul qilar ekan, ularni samarali amalga oshirish uchun ijro etuvchi hokimiyatning hamkorligi muhim [9].

Xulosa qilib aytganda, mamlaktimizda mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimini tashkil qilish va vakolatalarni to'g'ri taqsimlashda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'rganish va shu asosda tegishlicha tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish davlat boshqaruvi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Albatta, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini to'g'ridan- to'g'ri milliy amaliyatga qabul qilish ham muayyan darajada o'zini oqlamaydi. Chunki har bir davlatning o'z boshqaruv shakli mavjud hamda hal etilishi lozim bo'lgan vazifalar va ularning yechimlari ham bir-biridan farq qiladi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari sohasida keng ko'lamdagи islohotlar olib borayotgan davlat tajribasini o'rganish ham foydadan holi emas, albatta. Bu mamlaktimizda mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyatining tashkil qilinishida rejalashtirilgan dasturiy vazifalarning to'liq bajarilishiga hamda ko'zlangan maqsadlarga erishishga xizmat qiladi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бабаджанов Атабек Давронбекович Маҳаллий давлат ҳокимияти вакиллик органлари фаолиятида сиёсий партиялар иштирокини такомиллаштиришнинг ташкилий-хуқуқий масалалари Юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган Диссертация.-Т. 2020.
2. Фененко Ю.В. Муниципальные системы зарубежных стран: правовые вопросы социальной безопасности / Ю.В. Фененко. – М. : МГИМО-Университет, 2004. – С.61.
3. Трофимова И. Трансформация отношений центральной и местной власти в процессе децентрализации управления (опыт европейских стран) / Зарубежный опыт государственного управления и международные отношения. 2011. – С.87–88
4. Carozzi F., Repetto L. Distributive politics inside the city? The political economy of Spain's Plan E. // Regional Science and Urban Economics. 2019. №75. –P.87–88.
5. Тургунов М.Т. Сравнительное конституционное право. – Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 2014. – С. 115.
6. Марышев А.А. Вопросы взаимодействия органов государственной власти и органов местного самоуправления (на примере опыта США) // Проблемы современной экономики. 2008. № 3 (27). – С. 408–411.
7. Amundsen H., Hovelsrud G.K., Aall C., Karlsson M., Westskog H. Local governments as drivers for societal transformation: towards the 1.5°C ambition. // Current Opinion in Environmental Sustainability. 2018. –№31. P.23.
8. Закон Республики Казахстан от 23 января 2001 № 148 -II "О местном государственном управлении и самоуправлении в Республике Казахстан"// [https://online.zakon.kz/Document/?doc\\_id=1021546](https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=1021546)
9. "Local Government in Japan." Ministry of Internal Affairs and Communications.<http://www.soumu.go.jp/english/dgppss/seidoshikiryou.html>
10. "Local Government System in Japan." Cabinet Secretariat.<https://www.cas.go.jp/jp/seisaku/sengo/seng>